

MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR MUSHTARAKLIGI.

Ismoilova Dilfuza Ibodullayevna.

Texnologiya va Geografiya kafedrası

o'qituvchisi, Termiz davlat pedagogika instituti

Azizbek Mamarajabov

geografiya va iqtisodiy bilim

asoslari ta'lim yo'nalishi 4 – kurs talabasi

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada Surxondaryo viloyatining an'ana va urf-odatlarining ahamiyati tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Surxondaryo viloyati, qishloq turizmi, an'analar, urf-odatlar, madaniy meros, xalq marosimlari, an'anaviy sport, kurash, ko'pkari, baxshichilik, folklor festivali, turizm, gastronomiya, hunarmandchilik.

Kirish: Qadriyatlar tushunchasi nihoyatda xilma-xil ma'noda turli soxalarda qo'llaniladi. Qadriyatlar to'grisidani fan bu aksiologiyadir. Bu atama ilmiy bilimlar soxasiga o'tgan asrning ik-kinchi yarmida nemis aksiologii E.Gertman va frantsuz olimi P.Lapi tomonidan kiritilgan. Garbda bu atama grekcha «qadriyat» va «fan», «ta'limot» tushunchalariga asoslanadi. qadriyatni aksiologik nuqtai–nazardan talqin qilish, uning kategoriya sifatidagi mazmuni, ob'ektiv asosi va sub'ektiv jihatlari, namoyon bo'lish shakllari va xususiyatlarini o'rganishga imkon beradi.

Qadriyat kategoriyasi buyum yoki narsalarning iqtisodiy qimmatini ifodalaydigan tushunchadan farq qiladi. qadriyatlar inson uchun biror ahamiyatga ega bo'lgan vokelikning shakllari, narsalar, voqealar, jarayonlar, holatlar, sifatlar, talab va tartiblar qadrini ifodalash uchun ishlatiladigan kategoriyadir.

Ma'naviy madaniyat yoxud «ma'naviyat»ning mag'zini (ядросини) qad-riyatlar atshkil zatdi. Qadriyat alloqanday hodisa, voqea yokinarsaning o'ziga xos xususiyati yokixossasi emas, balki uning mohiyati, o'z navbatida borlikning y yokibu ob'ektining yashashi, mavjud bo'lib turishi uchun tom ma'nodagi zaruriy shartidir. qadriyatlar inson bisotida turli — tuman ehtiyojlarning va his — tuyg'u-larning mavjudligidan dalolat beradi, atrofida sodir bo'layotgan voqealarni, hodisa-larni turlicha baholashlari

uchun zamin yaratadi. Chunonchi birovlar uchun o'at qadrli, o'at muhim ahamiyatga ega bo'lgan, y yokibu hodisa, boshqa birovlar uchun qadsiz, sariq chaqalik ahamiyatsiz bo'lishi mumkin. Xuddi shuning uchun ham qadriyatlarni oddiy qilib ijobiy yoki salbiy (ahamiyatsiz, ahamiyat kamroq, qadr-qimmat sezilmaydigan), absalyut va nisbiy, ob'ektiv va sub'ektiv qadriyat-larga bo'lish mumkin. Mazmuniga qarab mantiqiy, etik, estetik va narsalar qad-riyatlariga bo'lish mumkin. Shuningdek, qadriyatlarni haqi-qatni, ezgulikni, go'-zallikni ulug'lovchi qadriyatlarga ajratish mumkin.

Qadriyatlar jamiyat ijtimoiy — iqtisodiy, madaniy -ma'naviy rataqqiyotining mahsulidir. Shuning uchun ham qadriyatlarda zamonning ruhi, imkoniyatlari, o'sha zamonda yashagan odamlarning orzu — umidlari, isatklari, atlab va ehtiyojlari o'z ifodasini topadi. Zamonlar o'tishi bilan qadriyatlarning mazmuni va ma'nosi o'zgarib boradi. Xuddi shuning uchun ham qadriyatlarning atrbiyaviy ahamiyatga baho berganda konkret atrixiy shart — sharoitlarni doimo nazarda tutmoq zarur.

Qadriyatlar insonning orzulari — istaklari, niyatlari -umidlari, bir so'z bilan aytganda ideal sifatida namoyon bo'ladi. Xuddi shuning uchun ham buyuk nemis faylasuflari V.Vindeluband, G.Rikkert at'kidlaganidek, qadriyatlar hech qachon ob'ektga ham, sub'ektga ham bog'liq bo'lmagan musatqil olamni vujudga kel-tiradi. Bu olam makon va zamon qonunlaridan ustun turadi. Shuningdek, inso-niyatning buyuk ma'naviy xazinasini bo'lgan qadriyatlar hech qachon o'zgarmaydi, balki M.SHeler, N.Gartman aytganidek, insonning qadriyatlar haqidagi atsav-vurlari o'zgaradi. Butun olam qadriyatlar bilan to'lib — toshgan bo'ladi va borliqqa hamisha yangi ma'no ato eatdi. Shuning uchun ham, butun voqelik qadriyatlarning «o'ziga xos namoyishi»dan iboratdir.

Hozirgi zamon Qadriyatshunos olimlarining fikriga ko'ra, qadriyatlarning ham o'ziga xos qonunlari bor. Bu qonunlar inson irodasiga bo'y so'nmaydi. qadriyatlar ob'ektiv olamning sub'ektiv in'ikosi bo'lgani uchun, kishilarning amaliy faoliyatiga o'z at'sirini o'tkazadi. Hatto odamlar turmush atrzini o'zgartiradi. Xuddi shuning uchun ham, kishilar o'zlarining turmush atrzlarini insoniyat yaratgan qadriyatlar atlablariga qarab o'zgartirib boradilar.

Sharq muatfakkirlari Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino qadriyatlar haqida fikr — mulohaza yuritganlarida, eng avvalo, insonning ma'naviy — ahloqiy fazilatlarini, xislat-lari, xosiyatlarini, insonning ruhiy — ma'naviy kamoloti uchun yordam beradigan buyuk xazinasini tushunganlar. Musulmon Sharqi mamlakat-larida keng atrqalgan diniy-falsafiy at'limot — atsavvuf namoyondalari ham, qadriyatlar deganda insonning qadr — qimmatini, uning ruhiy — ma'naviy yetukligiga qarab belgilanmog'i

lozimligini qayat — qayat atkrorladilar. Xususan, atsavvufning eng yirik oqimlaridan biri Kubraviyada at'kidlanishicha, insonning ruhiy — ma'naviy yetukligini ifodalovchi asosiy mezonlar: atvba, zuhd, atvakkul, qanoat, uzlat, atvajjuh, sabr, muroqaba, zikr, rizo hisoblansa, atsavvufning boshqa bir oqimi — Naqshbandiyada qayd etilishicha, insonning ruhiy — ma'naviy kamolatini ifodalovchimezonlar: Xush dar dam, nazar bir qadam, safar dar vaatn, xilvat dar anjuman, yodkard, bozgasht, nigohdosht, vuqufi adadiy, vuqufi zamoniyy, vuqufi qalbiy hisoblanadi. Atsavvuf falsafasining buyuk namoyondalari Najmiddin Kubro, Ahmad Bssaviy, Abduholiq g'ij-duvoniy, Aziziddin Nasafiy, Bohouddin Naqshbandiy, Hoja Ahror Valiy kabilar inson ma'naviy qadriyatlarining asosida poklik, hayo, sabr — bardosh, qanoat, chidam, beozorlik, hokisorlik kabi insoniy xislatlarni qo'yishgan. Yuqoridagi fikr-mulo-hazalardan ko'rinib turibdiki, qadriyatlar ichida eng ulug'i, eng a'losi insondir. Xuddi shuning uchun ham insonning ongi va faoliyatiga bog'liq bo'lmagan, undan atshqarida turgan bironat Qadriyat bo'lishi mumkin emas. Shunday ekan, qadriyatlar o'z mohiyati, mazmuniga qarab inson aql – zakovatini, axloq-odo-bini, mehnatga halol, vijdonan munosabatini, go'zal did va jismoniy kamolotni ulug'lovchi, turlarga bo'linmog'i darkor.

Qadriyatlarni jamiyat, millat hayotidagio'rni, ijtimoiy xarakteriga qarab milliy va umuminsoniy, sinfiy yokidiniy, shuningdek kishilarning yoshi, pro-fessional xususiyatlariga xos qadriyatlarga bo'lish mumkin.

Insonning qadr — qimmat, sha'ni, or — nomusi, milliy g'ururi — milliy qadriyatlar bilan bevosiyyat bog'liq. Milliy qadriyatlar, har bir millatning o'ziga xos xususiyatlari, xossalari, belgilari, alomatlarini ifodalovchifalsafiy tushunchabo'lib, o'sha millat bosib o'tgan ijtimoiy rataqqiyot jarayonida shakl-langani milliy madaniy meros xazinasiga qo'shgan hissasini, ulushini ifodalaydi. Xuddi shu milliy o'ziga xoslik, o'ziga moslik, millat madaniyatida, adabiyotida, san'atida, tilida, dinida, atrixiy xotirasida, yashash ishlash va fikrlash atrzida, urf-odatlarida, rasm — rusumlarida, bayramu — sayillarida o'z ifodasini topadi. Milliy qadriyatlar milliy ma'naviy madaniyat ifodasi bo'lib, har bir millatning insoniylik xazinasiga qo'shgan munosib hissasining hosilasidir.

Milliy qadriyatlarning negizini urf — odatlar, rasm -rusumlar, bayramu-sayillar atshkil eatdi. o'zbek milliy qadriyatlar mazmunida insonparvarlik g'oyalari yoatdi. Uzoq atrix davomida o'zbeklarning o'zaro munosabatlarida, kundalik turmush atrzida o'zaro hamkorlik va hamdardlik, vafodorlik va o'zaro hurmat, biri — biriga suyanish va yaxshi qo'shnicilik, bolajonlik va oat — onaga hurmat, mehr — oqibat va sadoqat har tomonlama e'zozlanib kelinadi. Milliy qadriyatlar o'sha mil-latga mansub har bir

kishi tomonidan yaratilgan, insoniylik, odamiylikka xos fazi-latlar, xislatlar, xosiyatlarni milliy — madaniy meros xazinasiga qo'shgan hissasini ifodalovchi buyuk ko'rsatkichdir.

Milliy qadriyatlar, shubhasiz, millatning ravnaqi yoki inqirozi bilan bevosiat bog'liq bo'ladi. Boshqacha aytganimizda milliy qadriyatlar millatning o'tmishi va buguni bilan bog'liq. Shuning uchun ham, «milliy qadriyatlar millat rivojlanishi bilan rivojlanadi, inqirozga uchrashi bilan qadrsizlanadi. Shuning uchun ham, millat — o'zining qadriyatlarini vujudga keltirib, ularning yangi — yangi qirralarini va jihatlarini sayqallashtirib, rataqqiyot jarayonida atkomillashtirib turi-shi ma'nosida o'z qadriyatlarining haqiqiy egasi, makon va zamondagi ilgari lanma harakatdan iborat o'zgarishlar jarayonida ularni o'tmishdan kelajakka atmon yetkazib boradigan eng asosiy ob'ektdir» .



Milliy qadriyatlarni tiklash — ularga hozirgi zamon öivilizaöiyasi atlablariga mos yangi mazmun ato etish demakdir. Xuddi shuning uchun ham, O'zbekiston davlat musatqilligiga erishishi bilan mamlakatimizga hozirgi zamon öivilizaöiyasi atlablariga javob beruvchi umuminsoniy demokratik Qadriyatlar xalqimiz turmush

atriga kirib kela boshladi. Inson haq — huquqlariga rioya qilish, atdbirkorlik erkinligi, matbuot erkinligi, ana shular jumlasidan edi. «Ushbu demokratik qadriyatlar jamiyatimiz uchun muhim ahamiyatga egaligi haqida gapirar ekanmiz, bu qadriyatlar atrixiy jihatdan ham, etnik — madaniy jihatdan ham xalqimizning o'ziga xos xususiyatlariga zid emasligini qayat-qayat at'kidlashni isatrdik».

Umuminsoniy demokratik qadriyatlarning eng muhimi — inson haq – huquqlari va erkinliklarini har tomonlama himoya qilishdir. Insoniyat atrixida Buyuk franöuz revolyuöiyasi (1789) qabul qilgan «Inson va grajdanlar huquqlari deklarätöiyasi», 1948 yilning 10 dekabrida BMT Bosh Assambeliyasi atsdiclqan «Inson huquqlarining eng umumiy deklarätöiyasi» — inson haq — huquqlari va erkinliklarini himoya qilishga qaratilgan atrixiy hujjatlar edi. O'zbekiston davlat musatqilligiga erishishi bilan musatbid tuzum sharoitida oyoq osti qilingan inson haq — huquqlari va erkinliklarini tiklash, uni himoya qilishga kirishdi. Insonning asosiy xuquqlari va erkinliklari O'zbekiston Respublikasi Asosiy qonuni – Kons-tituöiyaning umumiy qoidalari va olti bobdan iborat ikkinchi bo'limida xuquqiy jihatdan musathkamlandi. Shuningdek, demokratiya, barqarorlik, oshkoralik, tinchlik, hamkorlik kabi Umuminsoniy qadriyatlarning rivoj topishi uchun ham imkon yaratildi.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg'unlashib borayotganligini, musatqillik yillarida O'zbekistonda vujudga kelgan — fuqarolarni tinch, totuv yashashga, barqarorlikka intilishida ham yaqqol ko'rish mumkin. Endilikda tinchlik, millatlararo totuvlik, barqarorlik O'zbekistonda yashovchi barcha xalq-larni, millatlarni, elatlarning buyuk ijtimoiy-siyosiy Qadriyatiga aylanmoqda. Ja-hon



öivilizaöiyasining atlablariga mos tushuvchi bunday qadriyatlarni shakllani-shida va rivojlanishida, kishilar turmush atrzida musathkam o'rnashib olishida mustaqillik yillarida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan bir qator xayrli tad-birlar turtki bermoqda.

Yuqoridagi fikrlarimizdan quyidagi xulosalar kelib chiqadi:

1. Qadriyat alloqanday hodisa, voqea yoki narsaning o'ziga xos xususiyati yoki xossasi emas, balki uning mohiyati, o'z navbatida borlikning u yoki bu ob'ektining yashashi, mavjud bo'lib turishi uchun tom ma'nodagi zaruriy shartidir.
2. qadriyatlarni jamiyat, millat hayotidagi o'rni, ijtimoiy xarakteriga qarab milliy va umuminsoniy, sinfiy yoki diniy, shuningdek kishilarning yoshi, pro-fessional xususiyatlariga xos qadriyatlarga bo'lish mumkin.
3. Milliy qadriyatlar, har bir millatning o'ziga xos xususiyatlari, xossalari, belgilari, alomatlarini ifodalovchi falsafiy tushunchabo'lib, o'sha millat bosib o'tgan ijtimoiy rataqqiyot jarayonida shakllangan milliy madaniy meros hazinasiga qo'shgan hissasini, ulushini ifodalaydi. Umuminsoniy qadriyatlar esa barcha millat vakillariga xos bo'lgan qadriyatlarni ifodalaydi.

Бу тафаккурнинг марказида Яратганнинг энг улуг муъжизаси булмиш инсоннинг улуглиги ва муътабарлиги гоёси ётади. Бинобарин, у кадрланиши, эъзоланиши лозим. Чунки, мамлакатнинг хаёти, фаровонлиги, ана шу меҳнаткаш инсонларнинг меҳнатига, фаолиятига боғлиқ. Шу туфайли ҳам Шарқда комил инсон гоёси қадимдан буюк орзу булиб, донишмандларимиз хаёлини банд этиб келган. Инсоннинг азизлиги унга уз хатти-харакатларини узи мустақил идора этишига имконият берувчи ақл-заковат ато этилгани билан боғлиқдир. Яъни, инсон уз ақл-идроқи ёрдамида оламни гуллатиб-яшнатади. Аммо бу ақл-идроқда нафакат яшнатувчи, балки вайрон этувчи куч ҳам мавжуд. Хаётда эзгулик ҳукмрон булиши учун ақл яхшилиққа, адолатга хизмат қилиши зарур. Бунинг учун эса у соғлом маънавият измида булиши лозим. Шу туфайли ота-боболаримиз ақл-идроқни ёвузлик қулига тутқазмаслиққа ҳаракат қилганлар, уни маънавият билан, иймон-эътиқод, инсоф ва диёнат билан бошқаришга алоҳида эътибор берганлар. Бу тамойил халқимиз руҳини, даҳосини ақс эттирувчи улмас қадриятлар билан узвий боғлиқдир. Хусусан, буюк аждодимиз, соҳибқирон Амир Темурнинг соғлом маънавият маҳсули булган «Куч —

адолатдадир» деган шиори миллий гоёнинг таркибий кисмига айланиб кетган, мамлакат бирлигини таъминлаш, марказлашган давлат барпо этишда, айникса уни одиллик билан бошқаришда маънавий-мафкуравий асос булиб хизмат килган. Шу боис Темур салтанатида илм-маърифат юксак кадрланган, инсоннинг шаъни, ор-номуси эъзозланган, инсон ва унинг мол-мулки давлат мухофазасига олинган, карокчилик, угриликка кескин бархам берилган эди. Сохибқирон бобомизнинг: «Менинг салтанатимнинг у четидан бу четига, бошида олтин тулдирилган лаганни ёш бола кутариб утса ҳам, унинг мулкига хеч кимса дахл эта олмайди» деган сузлари хаётий хақиқат эди.

Ёки аёлларнинг огир жисмоний ишлардан озод килинганига эътибор беринг. Айтайлик, ёрдамчиси йук бирон аёл сув оладиган челакни дарвоза ташқарисига чиқариб куйса, шу жойдан утган мумин-мусулмонлар челакни олиб, унга сув тулдириб шу жойга куйиб кетишар эди. Дуконларга савдогарлар умуман кулф осишмасди. Буларнинг хаммаси уша замонда хаёт иймон ва эътикод, инсоф ва диёнат талаблари билан бошқарилганини, одамлар ана шу юксак туйгулар билан яшаганини курсатади. Мумин-мусулмонлар шундай турмуш тарзига одатланишган, урганишган эди. Улар узлари оч қолишса ҳам узганинг мулкига кул теккизмасди. Бу халкнинг менталитетига сингиб кетган эди.

Миллий истиклол мафкурасининг фалсафаси, унинг маъно-мазмуни, асосий гоё ва тамойиллари миллий давлатчилигимизни қайта тиклаб, жамиятимизнинг тараккиёт йулини назарий ва амалий жихатдан белгилаб берган Президентимиз Ислам Каримов асарларида чуқур ифода этилган. Бу асарларда мамлакатнинг ривожланиш йули, унинг узига хос хусусиятлари, олдимизга куйилган улугвор вазифаларни амалга ошириш имкониятлари курсатиб берилган.

Миллий истиклол мафкурасининг фалсафий асоси умуминсониятнинг бой тарихий утмишига, шунингдек қадимги Шарқ, Юнон, Рим ва бошқа фалсафа мактабларининг меросига ҳам таянади. Хусусан Сукрот, Платон, Аристотель сингари мутафаккирларнинг асрлар давомида уз кадр-киммати йукотмай келаётган доно фикрлари, жахон фалсафасининг урта асрлар ва хозирги замон намояндаларининг қарашлари ҳам миллий истиклол мафкураси тамойилларини асослаш ва бойитиш, уларга хаётий рух багишлашда мухим ахамият касб этади.

Конфуцийнинг фалсафий хикматлари, Платоннинг «уоялар дунёси ва соялар дунёси» тугрисидаги таълимоти, Гегель диалектикаси, гуманистик замонавий фалсафий окимларда илгари сурилаётган гоёлар ҳам миллий истиклол мафкурасининг умуминсоний асосларидир.

Утмиш фалсафаси гоёлари ва тарих сабоклари мафкурамининг маъно-мазмунини белгилашда муҳим омил булиб хизмат қилади. Бу мафкура халқимизнинг узига хос турмуш тарзи, тафаккури ва дунёкараши акс этган эртак ва афсоналардан, миллий қахрамонларининг ҳаёти ва фаолиятидаги ибратли мисоллардан озикланади. Миллий истиклол мафкураси шаклланишида «Авесто», «Қуръон» ва «Ҳадис»ларда зикр этилган хикматлар, дунёвий ва диний қарашлар, халқимизнинг озодлик, қомил инсонтуғрисидаги гоёлари муҳим аҳамият қасб этади.

Миллий истиклол гоёсининг асослари, тамойил ва йуналишларини яхши билиб олиш учун юқорида номлари зикр этилган алломаларнинг асарлари, миллий ва умуминсоний маданий мерос намуналарини чуқур урганиш борадаги асосий вазифа булиб қолмоқда.

Ма'naviyat, qadriyatlar va milliy o'zlikni anglash haqidagi fikr-mulohazalarimizga yakun yasalar ekanmiz, avvalambor, shuni chuqur anglab olishimiz



kerakki, ma'naviy yuksalishga erishish bir yillik yoki besh-o'n yillik ish emas. Yurtboshimiz ta'kidlaganidek, "Xalq, millat o'z milliy ma'naviyatini yillar, asrlar davomida yuksaltirib, boyitib boradi. Chunki ma'naviyat qotib qolgan aqidalar yig'indisi emas, aksincha, doimiy harakatdagi uzluksiz jarayon bo'lib, taraqqiyot davom etar ekan, uning shiddatli yurishi tufayli ma'naviy hayot oldiga qo'yiladigan talablar ham muttasil paydo bo'laveradi".

Istiqlol tufayli ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot, demokratik jamiyat barpo etayotgan xalqimizda o'zining aqlu-idrokiga, intellektual salohiyatiga, yaratuvchilik kuchiga, ma'naviyatiga ishonch yanada mustahkamlandi. To'g'ri, bu borada hali yechimini kutayotgan muammolar ham bor. Ammo xalqimizda, fuqarolarimizda milliy o'zligini anglash va namoyon etish istagi barqaror qadriyatga aylanib borayotganini ham sezmaslik mumkin emas. Aynan shu istak O'zbekistonda kechayotgan demokratik jarayonlarga ma'no va yo'naltiruvchilik ruhini baxsh etmoqda.

Adabiyotlar:

1. *Falsafa. q. Nazarov tahriri ostida. Toshkent, 2000, 257-266-betlar.*
2. *Filosofiya. Pod red. V. P. Koxanovskogo. Rostov-na-Donu, 1999, s. 515-540.*
3. *Barulin V.S. Sotsialnaya filosofiya. Moskva, 1999, s. 399-427.*
4. *Falsafa. E. Yusupov tahriri ostida. Toshkent, 1999, 301-321-betlar.*
5. *Osnovo' filosofii. Pod red. M. Axmedovoy i V. Xana. Toshkent, 1998, s. 349-356.*
6. *Spirkin A. G. Filosofiya. Moskva, 1998, s. 762-769.*
7. *Filosofiya. Pod red. V. D. Gubina, T. Yu. Sidorinoy, V. P. Filatova. Moskva, 1998, s. 284-306.*
8. *To'lenov J. T., g'afurov Z. g'. Falsafa. Toshkent, 1997, 268-294- betlar.*
- Radugin A. A. Filosofiya. Kurs lektsiy. Moskva, 1996, s. 289-312.*